

8-MART - XALQARO XOTIN-QIZLAR KUNI

Tong yulduzi

Vatan yagonadir,

Vatan bittadir!

N:10 (67175)

2018-yil 5-mart

Navoiy
boshlig'i
O'zbekiston MK

www.tongyulduzi.uz

Gazeta 1929-yil 1-avgustdan chiqa boshlagan

O'zbekiston Respublikasi bolalar va o'smirlar gazetasi

ISSN - 2010-6092

**SIZ BILAN GO'ZALDIR ZAMONA,
QIZLAR**

2-bet

K. O'LIMASOV va Sh. MAXMADIYEV olgan suratlari



**Buloqning suvi tiniq,
Dononing suhbatini.**

KITOBXONLIK BAYRAMI

**Xudo xayringizni bersin,
Yana umringizni bersin,
Uyingizga o'ftob oling,
Bittagina kitob oling.**

«Bittagina kitob oling», deya barchamizni ezgulikka chorlagan bu she'ri bilmaydigan o'quvchi bo'lmas kerak?! Poytaxtimizning Chilonzor tumanidagi 202-umumta'lim maktabi o'quvchilari ana shu she'r muallifi bilan uchrashishga muvaffaq bo'lishdi. Maktabda O'zbekiston xalq shoiri Sirojiddin Sayyid va O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan madaniyat xodimi Rustam Musurmon bilan bo'lgan uchrashuv kitobxonlik mavzusida bo'ldi. Shu bois, tadbir davomida «Eng yaxshi kitobxon o'quvchi» tanlovi ham o'tkazildi. «Men sevgan asar» shartida 8-«V» sinf o'quvchisi Muxlisa Qobiljonova Abdulla Qodiriyning «O'tkan kunlar» asaridan olgan taassurotlari haqida so'zlab berdi. 7-«B» sinf o'quvchisi Azizbek Abdumalikov esa O'tkir Hoshimovning «Ikki eshik orasi» romani haqida hikoya qildi.

2-shartda jahon adabiyotiga qiziquvchi 8-«A» sinf o'quvchisi Rushana Normatova o'z bilimini namoyish etdi.

3-shartda esa kitobxonlikni targ'ib qilish bo'yicha eng yaxshi g'oyani 7-«A» sinf o'quvchisi Mehribon Yusupova berdi. U turli mahsulotlar singari kitoblarni ham reklama qilinishini istar ekan.

Zalga yig'ilgan tomoshabin o'quvchilar ikki soatlik tadbir davomida o'ftobga qiyoslangan kitobning nurlaridan istaganicha bahramand bo'lishdi. Maktab rahbari Saodat opa Shodiyeva esa tadbirdan ko'zlangan maqsadga erishilganidan quvonib, g'oliblarni taqdirledi. Tadbirni tashkillashtirishda bosh bo'lgan maktab kutubxonachisi Nasiba Eshmo'minovaga esa O'zbekiston Yozuvchilari uyushmasi tomonidan taqdim etilgan kitoblar topshirildi. Demak, bu maktabda endi kitob atalmish o'ftobning zarrin nurlari yanada yorqin ziyo sochadi.



SIZ BILAN GO'ZALDIR ZAMONA, QIZLAR

– Maktabimizdagi barcha qizlar shoiri Zulfiyaxonimga havas qilishadi. Shu bois, ustozimiz Saodat opa Zoidova «Zulfiyaxonim qizlari» nomli klub tashkil qilgan. Bugun esa o'quv dargohimizda katta tadbir bo'lib o'tdi, – deydi poytaxtimizning Yunusobod tumanidagi 235-umumta'lim maktabining 8-«A» sinf o'quvchisi Muxtabar Ilhombekova.

Ushbu tadbirda Muxtabar sinfdoshi Abdulaziz Mirsagatov bilan davrani olib bordi. Shoiri hayoti va ijodiga bag'ishlangan bayramda boshidan do'ppi-yu qo'lidandan she'riy kitoblar tushmagan qizlar ko'zimizni quvnatishdi. Bejizga Zulfiyaxonim o'z she'rlarida «Siz bilan go'zaldir zamona, qizlar» yoki «Kuylarim ilhom sevarim qizlar» deb yozmagan edi. Tadbirda shoiraning izdoshiga aylanish orzusidagi iqtidorli o'quvchilardan Mohinur Botiraliyeva, Sevinch Husnidinova, E'zoza Yovqochivalar ifodali

she'r o'qishdi. 7-«V» sinfining o'g'il bolalari G'afurjon Nabixov va Ismoil Hikmatov Hamid Olimjonning «Zaynab va Omon» dostonidan parcha aytdi. Shuningdek, turli badiiy chiqishlar orqali ta'lim maskani c quvchilarining adabiyotga mehri baland ekanini his etdik. Bunda esa, albatta, ona tili va adabiyot fani o'qituvchilari – Jamila Saidvaliyeva, Gulbahor Rahimova, Gulmira Saibova va Mahbuba Mamaraimovaning xizmatlari katta. Kutubxona mudirasi Zuhra Yo'ldosheva esa bu kun maktabdagi nurxonada shoiri



ijodiga oid turli stendlarni tayyorlabdi. Biz ta'lim maskanidagi bu ishlarni ko'rib, shoiraning quyidagi misralarini yodga oldik...

**E'zozlar, ardoqlar uchun tashakkur...
Baxtim shul o'zbekning Zulfiyasiman.**



**Aziz
o'quvchilar!
Bu gal Sizlarga butun
O'zbekiston yoshlari,
kitobxon o'quvchilarini bir-
lashtirgan ajoyib onlayn
muloqot haqida hikoya
qilamiz.**

XALQ SHOIRI BILAN UCHRASHUV

Xalq ta'limi vazirligi va Respublika bolalar kutubxonasi tomonidan tashkillashtirilgan mazkur an'anaviy tadbirda Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahridan o'qituvchilar, ijodkor o'quvchilar hamda O'zbekiston xalq shoiri Mahmud Toir ishtirok etdi. Davra muloqoti ochiq video-muloqotda bo'layotganliklaridan xursand ekanliklarini bildirishdi. Namanganlik o'quvchi qiz Zilola Qayumova esa Mahmud Toirning shogirlari bilan qiziqdi. Shoir savolga javob berish barobarida barcha ijodkor yoshlarga o'z maslahatlarini ayamadi. Uning ijodga kirib kelishi bilan qiziqqan poytaxtimizning Yashnobod tumanidagi 231-umumta'lim maktabi o'quvchilari esa shoirning o'quvchilik yillaridayoq «Tannozi kelar» nomli ilk she'ri tuman gazetasida chop etilganini bilib olishdi. Erkin va samimiy ruhda bo'lib o'tgan muloqotda muxlislar shoiridan o'z she'rlaridan o'qib berishni so'radi.

**«Ko'zni ko'zlaganga xitob kerakdir,
O'zni izlaganga kitob kerakdir»,**

deya Mahmud Toir barchani kitobxonlikka chorladi.

Shu o'rinda Siz aziz gazetxonlarga shunchaki tadbir tafsilotlarini emas, ajoyib ma'lumotlarni ham yetkazgimiz keldi. Bilasizmi, sevimli adibimizning «Armon tuni» dostoni shoirning onasiga qasidasidir. Muallif odatdagi ish kunidan so'ng kechki payt onasidan hol so'rar ekan, onazor, «Kun bo'yi ishlab charchab kelgansan, bolam, damingni olaqol», deya o'g'luga xayrli tun tilaydi. Tongda esa volidasini bir umrga yo'qotgan shoirga o'sha tun armonli bo'lib qoladi. Xullas, ushbu onlayn uchrashuv taassurotlarga boy bo'ldi.



Sayyora QODIROVA

FANLAR SULTONI

**Poytaxtimizning Uchtepa tumanidagi 109-umumta'lim
maktabida o'quvchilar o'rtasida «Matematika - fanlar sultoni»
mavzusida zakovat intellektual musobaqasi bo'lib o'tdi. Tanlovda
6-«A» va 6-«V» sinf o'quvchilari ishtirok etdi.**



Tadbir boshlovchilari dastlab ishtirokchilarni tezkor savol-javob, rassomlik kabi shartlar bilan tanishtirdi. Sardorlar bellashuvi, krossvord yechish kabi shartlarda o'quvchilarning ziyrakligi, chaqqonligi, topqirliqlik sinovdan o'tdi.

Yakunda bir jamoa bo'lib harakat qilgan o'quvchilar g'oliblikni qo'lga kiritdilar. Ayniqsa, yangi peda-

gogik texnologiyalar asosida «Qurigan bargni olib tashla» o'yini tadbirning yanada qiziqroq o'tishiga asos bo'ldi.

Tadbir nihoyasida faol o'quvchilar maktab ma'muriyati tomonidan faxriy yorliqlar bilan taqdirlandi.

Muzaffar AHMEDOV

MAQOLANGIZNI O'QIB...

Assalomu alaykum, tahririyat xodimlari! Men gazetaning har bir sonini diqqat bilan kuzatib boraman.



Shu kungacha erishgan muvaffaqiyatlarimda «Tong yulduzi»ning o'rni beqiyos. Jumladan, 2017-yil «Eng yaxshi kitobxon» tanlovining viloyat bosqichida 2-o'rinni egalladim. «Zulfiyaxonim izdoshlari» bellashuvining tuman bosqichida g'olib bo'lib, viloyatda muvaffaqiyatli ishtirok etdim.

2015-yil «Yangi nashr» nashriyotida «Bahor», yaqinda esa «Ko'ngil so'zi» nomli she'riy to'plamlarim nashrdan chiqdi.

Darvoqe, «Tong yulduzi» gazetasining 2018-yildagi ilk sonida Axtamquli bobomizning «Qorxat» nomli maqolasini o'qigan edim. Maqolada to'rtta badiiy asar, to'rtta she'riy kitob o'qish kerakligi aytilgan edi. Shuning uchun men ham O.Yoqubovning «Billur qandillar», O'.Umarbekovning «Odam bo'lishi qiyin», Ch.Aytmatovning «Erta qaytgan tumalar», X.To'xtaboyevning «Qiz bolaga tosh otmang» asari hamda she'riy to'plamlardan A.Oripovning «Ko'ztumor», E.Vohidovning «Inson», O'g'liyo Ne'matovanning «Dildoshlarim», «Kurtaklarda uyg'ongan bahor» nomli kitoblarini mutolaa qildim. Kitob insonning eng yaqin do'sti ekanligini his qilgan holda tengdoshlarimga ham mutolaga oshno tutinishni maslahat berardim. Maktubim so'nggida barchangizga ijodiy zarfalar tilayman.

Laylo ESONMURODOVA,
Qashqadaryo viloyati, Kitob tumanidagi 5-umumta'lim
maktabining 9-sinf o'quvchisi



As-salomu alaykum, sevimli «Tong yulduzi» gazetasi xodimlari! Oilamizda bolalarga mo'ljallangan gazeta va jurnallar sevib o'qiladi. Shuning uchun siz azizlarga o'zimizning cheksiz minnatdorligimni bildirmoqchiman.

Har yili men «G'uncha», akam Javohir «Gulxan» jurnaliga, opam Maftuna esa «Tong yulduzi» gazetasiga obuna bo'lamiz. Gazeta va jurnallardagi maqola, hikoya va she'rlarni o'qib, bir-birimizga mazmunini gapirib beramiz. Qaysi nashrda zo'r narsa bosilgan bo'lsa, talashib o'qiyamiz. Menga «Tong yulduzi» gazetasidagi bolalar uchun mo'ljallangan hikoyalar juda yoqadi. Qolaversa, yaqinda «Sinfimizda buyum yo'qoldi» nomli maqolani katta qiziqish bilan o'qidim. Ushbu mavzu orqali birovning pulini olish yomon odat ekanligini angladim. Sinf rahbarimiz Ra'no opa Nuriddinova ham bizga gazetada chop



etilgan ana shunday yaxshi maqola, hikoya va she'rlarni o'qib beradilar. Dugonalarim Mohinur Mahmudjonova, Lobar Tursunboeva va ham men kabi a'lo baholarga o'qiydi. Biz dugonalar fanlarni yaxshi o'zlashtirganimiz uchun gazeta va jurnallarni, ertak kitoblarni qiyinmay o'qiyamiz.

Dilnoza MAHMUDJONOVA,
poytaxtimizning Olmazor tumanidagi 261-umumta'lim maktabining 1-«B» sinf o'quvchisi

Sovuq havo ta'siri sezilib turgan bo'lsa-da, allaqachon bahorgi yumushlar boshlab yuborilgan.

Y a k s h a n - ba kuni ertalab ko'chaga chiqsam, mahallamizdagi o'g'il bolalar qo'llarida arra, bolta, ketmon, belkuraklar bilan qayoqqadir o'tlanibdi. Ma'lum bo'lishicha, qishlog'imizdagi Ervali buva ziyoratgohida hashar o'tkazilayotgan ekan. Men ham ketmon ko'tarib, tengdoshlarim safiga qo'shildim.

Barchamiz ishga kirishdik. Kimdir daraxtning quruq shoxlarini kesgan, yana kimdir zaxonlarni to'plagan, ba'zilar esa ariqlarni tozalagan... Xullas, hamma har-

akatda. Menga qabrlar atrofidagi o'tgan yildan qolgan o't-u g'iyohlar qoldiqlari va shox-shabbalarni tozalash tushdi. Ish qilayotib, ayanchli holatdagi ko'plab qabrlarga duch keldim. To'g'ri, ziyoratgoh mas'ullari tozalikka doimo e'tibor beradi, ammo farzand-u nevaralarning yaqinlari qabrlariga e'tiborli bo'lishi baribir boshqa-da.

Hech qancha vaqt o'tmay, Angren shahar yoshlar ittifoqi kengashi raisi Bekzod Normatov bir guruh ko'ngilli yoshlar bilan safimizga kelib qo'shildi. Ko'pchilik bo'lib tushgacha ishni yakun-

ladik. O'ylaymanki, endi bunday xayrli amallar davomli bo'ladi. Biz yoshlar esa bu kabi ishlarda kattalarga kamarbasta bo'lamiz, albatta. Axir ota-bobolarimiz xoki yotgan dargohni ozoda saqlash har birimizning burchimiz-ku.

Siz ham aziz tengdoshim, tashabbus ko'rsatib, mahallangiz, muqaddas qadamjolarini obodonlashtirishga o'z hissangizni qo'shing!

Otabek BAKIROV,
Toshkent viloyati, Angren shahridagi 27-umumta'lim maktabining 10-sinf o'quvchisi

Har qanday bilim bizni g'ayratga undagan taqdirdagina qimmatlidir.

BAXMAL VODIYLARDA, QIRLARDA BAHOR



Salqin saharlarda, bodom gulida, Binafsha labida, yerlarda bahor. Qushlarning parvozi, yellarning nozi, Baxmal vodiylarda, qirlarda bahor.

Zulfiyaxonimning ijodi xalqimiz orasida sevib o'qiladi, qadrlanadi. Yaqinda maktabimizda ham shoironing hayot yo'li va ijodiga bag'ishlangan badiiy kecha ko'tarinki ruhda bo'lib o'tdi. Bayram kechasiga ona tili va adabiyot fani o'qituvchimiz bilan birga puxta tayyorgarlik ko'rdik. Qizg'in jarayonda maktabimiz o'quvchilarining adabiyotga bo'lgan qiziqishini ko'rib, behad

quvondik. Ustozimiz qizlarni saralashda ularning nutqi, sahnada o'zini tutishi va albatta, bilimiga alohida e'tibor qaratdi.

Kechada o'quvchilar faol ishtirok etdi. Ushbu tadbir Zulfiyaxonimning hayot yo'lini yanada chuqurroq o'rganishimizga ko'maklashdi. Shoira timsoli bizlarga oqila ona, nazokatli ayol qanday bo'lishi kerakligini o'rgatdi.

Gavharxon HAMDULLAYEVA,
Samarqand viloyati, Kattaqo'rg'on tumanidagi 23-umumta'lim maktabi o'quvchisi



Salom, tengdoshlarim! Yaqinda kutubxonachi opamiz Rohat Ro'ziboyeva boshchiligidagi maktabimizda «Sirli sandiq» nomli jumboqli o'yin tashkil qilindi.

O'quv dargohimizda ko'plab ana shunday tadbirlar o'tkazilishini istardik.

MAKTABDAGI SIRLI SANDIQ

Barchamizni qiziqtirgan bellashuvda 5-6-sinf o'quvchilari ishtirok etdi. Sinfimiz bilan o'yinga tayyorgarlik ko'rar ekanimiz, bahonada ko'plab kitoblar o'qidik. Quvonarlisi, yakunda sinfdoshimiz Sevinchoy Sa'dullayeva tanlovda g'olib bo'ldi.

Sarvar RO'ZIBOYEVA,
Xorazm viloyati, Yangiariq tumanidagi 19-umumta'lim maktabining 5-«A» sinf o'quvchisi

HASHARCHILARGA BIZ HAM QO'SHILDIK!

akatda. Menga qabrlar atrofidagi o'tgan yildan qolgan o't-u g'iyohlar qoldiqlari va shox-shabbalarni tozalash tushdi. Ish qilayotib, ayanchli holatdagi ko'plab qabrlarga duch keldim. To'g'ri, ziyoratgoh mas'ullari tozalikka doimo e'tibor beradi, ammo farzand-u nevaralarning yaqinlari qabrlariga e'tiborli bo'lishi baribir boshqa-da.

Hech qancha vaqt o'tmay, Angren shahar yoshlar ittifoqi kengashi raisi Bekzod Normatov bir guruh ko'ngilli yoshlar bilan safimizga kelib qo'shildi. Ko'pchilik bo'lib tushgacha ishni yakun-

ladik. O'ylaymanki, endi bunday xayrli amallar davomli bo'ladi. Biz yoshlar esa bu kabi ishlarda kattalarga kamarbasta bo'lamiz, albatta. Axir ota-bobolarimiz xoki yotgan dargohni ozoda saqlash har birimizning burchimiz-ku.

Siz ham aziz tengdoshim, tashabbus ko'rsatib, mahallangiz, muqaddas qadamjolarini obodonlashtirishga o'z hissangizni qo'shing!

Otabek BAKIROV,
Toshkent viloyati, Angren shahridagi 27-umumta'lim maktabining 10-sinf o'quvchisi

Ilmning avvali sukut, so'ng eshitish,
so'ng yod olish, so'ng amal qilish, so'ng
uni tarqatish.

Imom G'AZZOLIY

Tong yulduzi

Xalqimiz azaldan qiz bola tarbiyasiga alohida e'tibor beradi.

QIZ BOLA = ELNING KO'RKI

Ota-bobolarimiz «Gul o'ssa yerning ko'rki, qiz o'ssa elning ko'rki», deb bejiz aytishmagan.

«Dars ila tarbiya orasida biroz farq bo'lsa ham, ikkisi bir-biridan ayrimaydigan, birining vujudi biriga bog'langan jon ila tan kabidir», deydi o'zbek xalqining ulug' ma'rifatparvari Abdulla Avloniy. Shu fikrga tayanib, go'zal axloqli qizlarni tarbiyalashda faqat o'quv mashg'ulotlari bilan cheklanib qolmay, maktabimizda sinfdan tashqari tarbiyaviy tadbirlar – turli tanlovlar, badiiy kechalar o'tkazishga

alohida ahamiyat berilmoqda.

Yaqinda maktabimizning 3-«A» sinf qizlari o'rtasida «Zumradoylar davrasida» tanlovi bo'lib o'tdi.

Bellashuv qatnashchilari she'rxonlik, pazandalik kabi turli shartlar bo'yicha kuch sinashib, sharqona ibohayo bilan kamol topayotganliklarini namoyish etishdi.

OyguL BOBOJONOVA,
Xorazm viloyati, Hazorasp tumanidagi 2-umumta'lim maktabining boshlang'ich ta'lim o'qituvchisi

MENDA HAM SHUNDAY IMKONIYAT BO'LSA EDI... bu xitoylik Xao Venning orzusi

Qadrli o'quvchi, siz yashayotgan jonajon yurt, ta'lim olayotgan o'quv maskaningizni qanchalar qadrlaysiz? Sizga berilgan imkoniyatlardan unumli foydalana olyasizmi?

Afsuski, bugun turli bahonalar bilan darsga kelmayotgan, ko'cha-ko'yda qimmatli vaqtini bekorchi ishlarga sarf etayotgan, sog'ligi va tarbiyasiga salbiy ta'sir etadigan turli kompyuter o'yinlarini bilim olishdan muhim sanab, ota-onasi, ustozlari so'zlariga quloq solmayotgan bolalar kam emas. Lekin sizlardagi bilim olish va sport bilan shug'ullanish uchun yaratilgan qulaylik va imkoniyatlar «Qani endi menda bo'lsa», deya orzu qilayotgan chet ellik tengdoshlaringiz talaygina.

Masalan, Xitoyning Yun'nan provinsiyasida yashovchi Vang Fuman maktabgacha bo'lgan 5 kilometrli yo'lni har kuni piyoda bosib o'tadi. Oilaviy sharoiti og'irligi bois, kiyish uchun qalin kiyimlari ham yo'q. Shunday bo'lsa-da, bu tengdoshingiz noqulay ob-havo sharoitida ham aslo dars qoldirmaydi. Bir kuni havo harorati -9°C ga tushib ketishiga qaramay, u maktabga odatdagiday yayov boradi. Oqibatda esa bolakay yo'lda muzlab qoladi. Uning muzlagan qo'llari, sochlari tasvirlangan surat internet tarmoqlarida barchaning e'tiboriga tushdi.

Vang Fuman tahsil olayotgan bilim maskanida isitgichlar yo'q bo'lsa-da, barcha o'quvchilar darsga muntazam kelishadi. Uning internetdagi suratiga «muz bola» deb nom berildi va dunyoning turli burchaklaridan Vangning maktabi hamda oilasiga moddiy mablag' yuborildi. Bolakay ushbu nochorlikdan chiqib ketishning yagona yo'li yaxshi o'qish deb biladi va ilm olishga tish-tirmog'i bilan tirishadi.

Xitoyning Guansi provinsiyasida yashovchi 76 yoshli Shi Yuying ismli buvi ham har kuni 24 kilometrli masofani piyoda bosib, nabirasi Xao Venni maktabga olib boradi. Bolakay shol bo'lib qolganligi sababli aravachada o'tiradi. U nogiron bo'lishiga qaramay, matematika fanini yaxshi o'zlashtirgan. Shu bois, buvi nabirasini kelajakda katta muvaffaqiyatlarga erishishiga ishonadi.



Biz-da-chi?! Yurtimizda o'qib-o'rganishingiz uchun barcha shart-sharoitlar yetarli, faqatgina sizda xohish-istak bo'lsa, kifoya. O'ylaymizki, yuqoridagi tengqurlaringizning hayotidan to'g'ri xulosa chiqarasiz. Internet manbalari asosida Nigora ABDUNAZAROVA tayyorladi

TOHIRJON RASSOM BO'LMOQCHI

Siz katta bo'lganingizda, qaysi kasbni tanlaysiz?

Bu savolga aksariyat o'quvchilar ikkilanib javob berishi tabiiy, ammo Uchtepa tumanidagi 203-umumta'lim maktabining 3-sinf o'quvchisi



Tohirjon Nig'matov aniq-tiniq qilib, «Rassom bo'laman», deya javob beradi. Iste'dodli o'quvchining onasi Dilfuza opa o'g'lining qiziqishlarini o'z vaqtida payqab, uni Chilonzor tumanidagi 8-musiqqa va san'at maktabiga olib boradi. Ayni damda u tasviriy san'atning nozik sirlarini qunt bilan o'rganmoqda. Tohirjonning ustози Dilnoza Sojirova ranglarni to'g'ri tanlash, chizilgan rasmlarni to'g'ri bo'yash kerakligini o'quvchilariga tez-tez takrorlab turadi. Maqolamiz qahramonining ijod namunalari ko'rib, ko'zlarimiz quvonchdan porlaydi. Tohirjon faqat rasmlar chizarkan-da, deb o'ylamang, u yana loydan turli buyumlar yasashning ham uddasidan chiqadi. Ishtirok etgan tanlovlarida kitob sovg'a qilishsa, boshi ko'kka yetadi. U tabiat qo'ynida rasm chizishni yoqtiradi. Shuning uchun bo'lsa kerak, atrof olamning go'zalligi unga ilhom bag'ishlaydi.

Tohirjon gazetamiz orqali onajonisi Dilfuza opani yaqinlashib kelayotgan 8-mart – Xalqaro xotin-qizlar ayyomi bilan chin dildan qutlashimizni iltimos qildi. Biz ham o'z navbatida, kelgusida Ortiqali Qozoqov singari rassom bo'lishni maqsad qilgan Tohirjonga ijodiy parvozlar tilaymiz. Ozoda TURSUNBOYEVA



CONGRATULATION LETTER

Wishes	Uzbek translations
You look so well.	Ko'rinishingiz juda yaxshi.
You are so kind.	Siz juda mehribonsiz.
You are an excellent hostess.	Siz ajoyib bekasiz.
How clever of you!	Barakalla!
Congratulations on your mother's day!	Ayollar bayrami bilan tabriklayman!
Seeing your smile makes me happy!	Tabassumingizni ko'rish meni xursand qiladi!

Now children let's make the congratulation letter for your mother and sisters.

My dear mummy

My dear mother! I congratulate you on your mother's day. I wish you best wishes. You are my lovely mother. You are so kind and excellent hostess. Thank you for everything. Seeing your smile makes me happy!

Be always healthy for my fortune.
Your daughter Mubina

TRANSLATE INTO UZBEK

Monsoon ()

Orchard ()

Talkfest ()

Handicraft ()

Error ()

Reed ()



Dinora ABDULLAJONOVA

FATHER FROST AND RABBIT

Underline the verbs in the sentences

It was a cold day. Father Frost was going around the forest turning everything into ice. All animals trembled with fear. Suddenly, he met with a rabbit.



– Oh Poor rabbit, I'm the most powerful in the forest I may freeze everything.» said the frost.

– That's true, but you can not freeze everything» replied the rabbit.

– Let's have dispute about freeze. In several minutes I will freeze you. It is piece of cake for me» the frost said.

– O.k. I agree with you» replied the rabbit.

After that father frost start-

ed to freeze the rabbit.

Nevertheless, the rabbit ran and jumped and danced round the trees. In spite of cold weather, the rabbit didn't stop. Father frost gave due to rabbit's patience «It is not worth freezing you» said the Father frost being exhausted and gave him white skin. In that way all rabbits wear white skin in winter.



Your teacher Ma'mura G'ULOLOVA

Heaven is at the feet of Mothers

(Arabic proverb)

TARJIMON MUALLIM

Jizzax viloyati, Do'stlik tumanidagi Oltin vodiy qishlog'ida yaxshi bir gap tarqaldi. Ma'lum bo'lishicha, baxmallik Shuhrat ismli yigit 17-boshlang'ich ta'lim maktabi qoshida qishloq yoshlariga ingliz tilidan to'garak ochibdi.



Xushxabarning chinga aylanganiga ham 3 yil bo'ldi. O'tgan vaqt ichida tinib-tinchimas muallim, ko'plab shogirdlar tayyorladi.

Yoshligidan o'qituvchilik kasbiga mehr qo'ygan, kichik-kichik she'rilar mashq qilib yurgan, mustaqil tarzda ingliz tilini o'rganishdan charchamagan

Shuhrat Egamnazarov Jizzax davlat pedagogika insitutining kimyo o'qitish metodikasi fakultetida 4 yil tahsil oldi. Ammo ingliz tiliga bo'lgan mehri hammasidan ustun keldi. Hozirda Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universitetining ingliz tili yo'nalishida pedagogik faoliyatidan uzilmagan holda tahsil olmoqda.

Ustoz o'quvchilarga shunday saboq beradiki, deyarli barcha shogirdlarining qalbida til o'rganishga ixlos va havas uyg'onadi. Dars jarayonida konferensiya, sahna-musobaqa, bahs-munozara, axborot, interfaol kabi noan'anaviy dars usullaridan keng foydalanayotgani o'quvchilarning bilim darajasi oshishida qo'l kelmoqda.

Shuhrat Egamnazarov innovatsion texnologiyalardan foydalangan holda yosh avlodga saboq berayotgani besamar ketmadi. Endilikda ustozning Shahzod Norboyev, Bobur Safarov, Omadbek Turg'unov, Javlon Umarov, Asilbek Smaylov, Shoira Mamatova, Bekpo'lat Erg'oziyev, Azizbek Pardaboyev singari shogirdlari ingliz tilida bimalol so'zlasha oladi. Aksar o'quvchilari «Billmlar bellashuvi», fan olimpiadalarida faxrii o'rinlarni qo'lga kiritgan.

My name is butterfly,
Alight to flower from flower.
My favourite place is nature,
I joyful there all time.

Mening nomim kapalak,
Guldan gulga qo'naman.
Sevgan joyim tabiat,
Unda o'ynab-kulaman.

kabi beg'ubor she'rilar yozib, katta bo'lgan bolakay, bugun Oltin vodiy qishlog'ining faxriga aylangan. Ustoz hozirda Xudoyberdi To'xtaboyev, Anvar Obidjonning bolalarga bag'ishlangan asarlarini ingliz tiliga tarjima qilmoqda. Ijodkor muallimning izlanishlari aziz o'quvchilar qo'lga noyob durdona bo'lib yetib borishiga ishonamiz.

Nurbek QIDIRALIYEV

CIRCLE THE CORRECT WORD (To'g'ri so'zni belgilang)

Ex: You can hold your bag / classroom.

1. You can climb a tree / bus.

2. You can turn off the radio / watch.

3. Can you open the door / light?

4. You can close your TV / book.



Painter: Yoqubbek HALIMBEKOV

5. Can you swim in the road / river?

6. You can cook porridge / potato.

7. You can use your mobile phone / cartoon.

8. Can you speak in English / Russian?



Gulchehra UBAYDULLAYEVA

DUGONALARIM

Bodom gullariday ilhom berguvchi,
Siz qo'shiq, g'azalsiz, dugonalarim.
Ko'rkamsiz qip-qizil lolalardan-da,
Gullardan-da go'zal dugonalarim!

Hayoda, iboda a'lo ekansiz,
O'qishda, bilimda dono ekansiz.
Odob dunyosida tanho ekansiz,
Gullardan-da go'zal dugonalarim!

Biringiz do'ppido'z, chevar, tikuvchi,
Biringiz kashrado'z, mohir to'quvchi.
Hozircha shogirdsiz, a'lo o'quvchi,
Gullardan-da go'zal dugonalarim!

Ajoyib do'stlarsiz ahil va inoq,
Baxtiyor zamonda shodon va quvnoq.
Ertangiz chiroyli, ertangiz porloq,
Gullardan-da go'zal dugonalarim!

Muxlisa AHMEDOVA,
Farg'ona viloyati, Qo'shtepa
tumanidagi 33-umumta'lim
maktabining 8-sinf o'quvchisi

YURAGIM POSBONISIZ

Onajonim, yaxshisiz,
Siz gullarning naqshisiz.
Bu olam dostonisiz,
Yuragim posbonisiz.

Duoningiz doimo,
Omadimni keltirar,
Kulib yursangiz agar,
Qalbim quvonchga to'lar.

Odiljon ABDUQODIROV,
poytaxtimizning Chilonzor
tumanidagi 162-umumta'lim
maktabining 1-sinf o'quvchisi

YUZINGIZDA PORLASIN QUYOSH

Tun uyqusin bedor o'tkazgan,
Olloh sizni bizga yetkazgan.
Dunyodagi beg'ubor sanam,
Poyingizga bosh egay, onam.

Menga baxtdir zavqli mehringiz,
Mehribonim, o'pay qo'lingiz.
Kulib tursin yuzingiz har dam,
Poyingizga bosh egay, onam.

Go'yo oysiz misli shamchiroq,
Bu yerlardan ketmangiz yiroq.
Yo'limizni yorituvchi sham,
Poyingizga bosh egay, onam.

Yuzingizda porlasin quyosh,
Har negaki beradi bardosh.
Ko'zingizda hech bo'lmasin nam,
Poyingizga bosh egay, onam.

Zarina ZIKRILLAYEVA,
Qashqadaryo viloyati, Yakkabog'
tumanidagi 38-umumta'lim
maktabining 8-sinf o'quvchisi



**DUNYO
TURGUNCHA
TURING!**

Mening aziz ustozim,
Onamdayin mehribon.
Jon kuydirib o'rgatar,
Irodaxon ustozim.

O'rgatdingiz siz bizga,
O'qish, aql-idrokni.
Rahmat sizga doimo,
Aziz bo'lgan ustozim.

Nasiba ABDULLAYEVA,
Xorazm viloyati, Xiva
tumanidagi 41-umumta'lim
maktabining 8-sinf o'quvchisi



USTOZIM

Mening aziz ustozim,
Onamdayin mehribon.
Jon kuydirib o'rgatar,
Irodaxon ustozim.

O'rgatdingiz siz bizga,
O'qish, aql-idrokni.
Rahmat sizga doimo,
Aziz bo'lgan ustozim.

Rukshona SHAROBIDDINOVA,
Namangan viloyati, Norin
tumanidagi 42-umumta'lim
maktabining 4-«B» sinf o'quvchisi

EY, AZIZ ONA!

Siz jajji yurakda yagona, tanho,
Iliq qalbingizdan yaralgay dunyo.
Olamda barchaga farishta go'yo,
Qancha mo'tabarsiz, ey, aziz ona.

Sizdek tabarrugim yana qayda bor,
Axir olam ichra sizsiz betakror.
Ohista shivirlab aytayin takror,
Tengsiz mo'tabarsiz, ey, aziz ona!

Siz uchun eng go'zal ta'riflar ham kam,
Osmondagi oydek ulug'lasam ham.
Dunyo boyligidan ustunim onam,
Qancha mo'tabarsiz, ey, aziz ona!

Mahliyo FAYZULLAYEVA,
Surxondaryo viloyati, Sariosiyo
tumanidagi 2-umumta'lim maktabining
8-«B» sinf o'quvchisi

«NABIRAMGA MAKTUBLAR» TURKUMIDAN

(Davomi. Boshi o'tgan
sonlarda)

Ey, mening umidli nabiram! Hech qachon xo'mrayib yurma. Ha, bulutli osmonga o'xshama. Istarali bo'l. Rang ko'r - hol so'r, deydilar. Rangingga qarab, sening kimligingni atrofdegilar bilib oladilar. Odanning yuzi uning oynasidir. Oftobdek kulib yurganga nima yetsin, bu dunyoda?! Xo'sh, bunga erishish osonmi, qiyinmi?

Mana, sen qorong'i uyga kirding. Tugmachani bosgan eding, uy ichi yorishdi. Xo'sh, chiroq qandoq qilib yondi?

Buni bilasan. Tugmacha bosilganda musbat bilan manfiy zarralari tutashdi, uchqun chiqib, xona yorishdi. Endi o'yla, sening vujudingda ham musbat va manfiy zarralari bor. Bu haqda hech o'ylab ko'rganmisan? O'ylash vaqti ham kelib qoldi. Oq-qorani taniysan, endi. Kel, musbat zarrani ramziy ma'noda HAVAS, manfiy zarrani esa HASAD deb olaylik. Xohlaymizmi, yo'qmi, inson fitratida bir-biriga qarama-qarshi shu ikkala zarra mavjud. Ularni senga qanday qilib soddarok qilib tushuntirsam ekan? Ha, topdim. Misol uchun sinfingda bir a'lochi o'quvchi bor,

deylik. U sening ta'biring bilan ayganda, judayam bilag'on. Hamma o'qituvchilar uni maqtaidi va yaxshi ko'radilar. Lekin sinfdagi bolalar-chi? Barchasi baravar yaxshi ko'radilarmi? Hamma gap shunda. Yaxshi ko'radiganlariyam bor, ko'rmaydiganlariyam, shundaymi? Ha, yasha. Yaxshi ko'radiganlari unga havas qiladiganlaridir. Yoqtirmaydiganlari esa unga

HAVAS VA HASAD

hasad qiladiganlaridir. Havas qiladiganlari u bilan do'st, apoq-chapoq, kun sayin o'zlarini ham o'sha bolaga o'xshab borishyapti. Yuqyapti-da. Hasadchilar esa uning yaqiniga ham yo'lashmaydi. E... deb qo'llarini orqasi bilan ko'rsatishadi. Endi havas qiladigan o'rtoqlarini yuzlariga e'tibor qil. Nur yog'ilib, kulib turadi-ya. Hasad qiladiganlarning yuzi-chi? Bulutli osmonga o'xshaydimi? Demak, yuzimiz kulib turishi uchun biz, avvalo, ichimizdagi hasadni o'ldirishimiz kerak ekan. Shunday bo'ladi, HAVAS degan fazilat HASAD degan illatni bir yoqlik qilaman deb kurashib, borgan sari odamning qalbi

Erkin MALIK,
O'zbekiston Respublikasida
xizmat ko'rsatgan jurnalist



yorishib boraveradi. Bu oxir-oqibat nimada ko'rinadi? Insonning yuzida. Uning hush-u xulqida.

Hasad deganlari juda yomon narsa. Zang temiri qandoq yeb tugatsa, hasad ham odamni shundoq ado qiladi. Shuning uchun, bolajonim, odamlar ko'zini quvontiradigan har bir narsaga havas bilan qara. Ana shunda ishing yurishaveradi. Zinhor bazinhor ichingda hasad degan narsa g'imirlamasin. Ulug' maqsad va niyatlariga faqat havas bilangina erishiladi. Buni esingdan chiqarma, chirog'im!

(Davomi bor)



BOKSCHILARIMIZ PESHQADAM

O'tgan hafta o'zbek bokschilari yurtdoshlarimizga bir olam quvonch ulashdi.

Poytaxtimizda bo'lgan jahon boks seriyasining guruh bosqich o'yinlarida «Uzbek Tigers» jamoasi muvaffaqiyatli ishtirok etib, yakunda Kuba va kolumbiyalik raqiblarini ishonchli tarzda mag'lub etdi. Quvonarlisi, bu g'alaba orqali charmqo'lqop ustalarimiz guruh peshqadamlaridan biriga aylandi.



27-fevral kuni «Universal» sport majmuasida o'zbek yo'lbarlari kubalik raqiblarini jiddiy sinovdan o'tkazdi. Dastlab ringga 49 kg vazn toifasida yurtimizning eng kuchli bokschilaridan biri, Olimpiada chempioni, jahon chempionati sovrindori Hasanboy Do'smatov va Yoannis Oskar Argilagosa chiqib keldi. Azaliy raqiblar o'rtasida kechgan keskin va murosasiz to'qnashuv andijonlik bokschimizning ishonchli g'alabasi bilan yakunlandi.

So'ngra, 56 kg vaznda Olimpiada chempioni, buxorolik Shahobiddin Zoirov yana bir Olimpiya o'yinlari g'olibi, jahon chempioni Robeysi Ramiresga qarshi ringga ko'tarildi. Quvonarlisi, ushbu bahsda yurtimiz sharaflarini himoya qilgan sportchimiz raqibini ishonchli tarzda taslim etdi.

Afsuski, 64 kg vaznda ishtirok etgan umidli yosh bokschimiz Iqboljon Xoldorovga biroz tajriba yetishmadi. U Andi Kruz Gomesdek kuchli raqibiga kichik hisobda imkoniyatni boy berdi.

Shundan so'ng, bokschilarimiz yana tashabbusni qo'lga olib, raqiblarini ikki bor ringdan bosh egib chiqishga majbur qildi. Jumladan, 75 kg vaznda Isroil Madrimov, 91 kg da esa Sanjar Tursunov mos ravishda Arlen Lopes va Erislandi Savonni mag'lub etib, yakuniy hisobni o'rnatdi: «Uzbek Tigers» – «Domadores de Cuba» 4:1.

Bahorning ilk kunida «Uzbek Tigers» poytaxtimizda «Colombia Heroicos» jamoasi bilan o'zaro «hisob-kitob» qildi. Bu gal ham bokschilarimiz raqiblarini yirik 4:1 hisobida mag'lub etdi.

Sa'dullo TURSINOV

NUROTALIK CHEMPIONLAR

O'quvchi-yoshlarni sport bilan shug'ullanishga keng jalb etish maqsadida Nurota tumanidagi 32-umumta'lim maktabida Yoshlar ittifoqi tashabbusi bilan «Yoshlar kubogi» musobaqasining hududiy bosqichi bo'lib o'tdi.

Turnir sportning futbol, voleybol hamda stol tennis turlari bo'yicha o'tkazildi. Yakunda futbol bo'yicha 1-o'rinni 32-umumta'lim maktabi jamoasi qo'lga kiritgan bo'lsa, 2-o'rinni 22-umumta'lim maktabi jamoasiga nasib etdi. Sportning voleybol turida 22-umumta'lim maktabi jamoasi 1-, 49-umumta'lim maktabi jamoasi 2-o'rinni egalladi. Stol tennisida 32-umumta'lim maktabi o'quvchilari – Shohruh Shukurullayev hamda O'rozali O'rolxonovlar mos ravishda 1–2-o'rinni qo'lga kiritdi. Eng yaxshi hujumchi deb Alijon Ziyatov, eng yaxshi himoyachi deb Toshtemur Shomurodovlar topildi.

Musobaqa yakunida Yoshlar ittifoqi tomonidan ishtirokchilarga diplom, faxriy yorliq va esdalik sovg'alari topshirildi.

Baxtiyor RAIMOV,

Nurota tumanidagi 32-umumta'lim maktabining yoshlar yetakchisi

Faqat harakatgina ezgulikning haqiqiy qadr-qimmatini belgilaydi.

O'zbekiston yoshlar ittifoqi tomonidan Andijon viloyatida yoshlar haftaligi munosabati bilan sport va salomatlik yo'nalishida tadbirlar o'tkazildi.

«YOSHLAR ITTIFOQI HAFTALIGI»

Asaka tumani Bolalar va o'smirlar sport maktabi 2-TIP sport inshootida o'zbek jang san'ati, stol tennis, yengil atletika, sambo, shaxmat-shashka, karting, tosh ko'tarish, voleybol, badiiy gimnastika, futbol bo'yicha musobaqalar tashkil etildi. Bellashuvlarga 3500 nafarga yaqin yoshlar qamrab olindi. 25 nafar badiiy gimnastikachi qizlarga homiylar tomonidan sport formalari topshirildi.



Bo'z qurilish-kommunal kasb-hunar kollejida «Burgut» harbiy sport musobaqasi, stol-tennis va o'zbek jang san'ati bo'yicha bellashuvlar tashkil etildi. Bahslarga 700 nafarga yaqin yoshlar qamrab olindi. Buloqboshi tumani Bolalar va o'smirlar sport maktabida esa voleybol va karate bo'yicha turnir tashkil etildi.

Shuningdek, Andijon shahar Olimpiya zaxiralari kollejida bo'lib o'tgan musobaqada 300 nafardan ziyod sportchi voleybol, suzish, futbol, boks, yengil atletika va og'ir atletika bo'yicha o'zaro bellashdilar. G'oliblar diplom, faxriy yorliq va esdalik sovg'alari bilan taqdirlandi.

G'OLIBLAR SARALANDI

Poytaxtimizning Mirobod tumanidagi 1-Bolalar va o'smirlar sport maktabida boks bo'yicha ochiq chempionat o'tkazildi.

Turnirda andijonlik hamda poytaxtimizning Yakkasaroy, Mirobod, Mirzo Ulug'bek tumanlari bokschilari ishtirok etdi.

Bahslarga murabbiylardan To'ra Tursunov va O'rol Rustamov hakamlik qilishdi.

Yakunda faol ishtirokchilar tashkilotlar tomonidan taqdirlandi.

Muhammadsodiq ALIMOV



«KAMALAK»CHILAR BAHSI

Toshkent viloyatining O'rta Chirchiq tumanidagi 5-umumta'lim maktabida o'zbek jang san'ati, kikkoksing, voleybol, shaxmat va shashka to'garaklari faoliyati yo'lga qo'yilgan.

Maktab sportchilari tuman, viloyat miqyosidagi qator musobaqalarning chempionlaridir.

Kuni kecha ta'lim muassasasi «Kamalak» bolalar boshlang'ich tashkiloti a'zolari o'rtasida sportning shaxmat va shashka turi bo'yicha «Maktab kubogi» o'tkazildi. 2-, 3-, 4-sinf

«Kamalak»chilari ishtirokidagi musobaqa keskin bahslarga boy bo'ldi. Bellashuvlar yakunida 2-sinf o'quvchisi Behruz Ernazarov, 3-sinf dan Davlatbek Po'latov, Abdulboriy Nuraliyev, Madiyor Jiyonboyev hamda 4-sinf o'quvchisi Abbos Qorabekov g'oliblikni qo'lga kiritdi.

Faol ishtirokchilar maktab yoshlar ittifoqi yetakchisi Sadoqat Tangatova tomonidan munosib rag'batlantirildi.

Shukrulla G'ULOMOV



BAHOR RANGLARI

Lobar QOSIMJONOVA, Toshkent shahar, Olmazor tumanidagi 11-umumta'lim maktabining 6-«B» sinf o'quvchisi



«Atirgul»



«Olmaguli»



«Kapalak»

Muhayyo ZAFAROVA, Farg'ona viloyati, Beshariq tumanidagi 40-umumta'lim maktabining 5-«A» sinf o'quvchisi



«Qo'zichoq»



«Sovg'a»

Nargiza HAYITOVA, Surxondaryo viloyati, Qumqo'rg'on tumanidagi 67-umumta'lim maktabining 6-«A» sinf o'quvchisi

Elmurod MUXTOROV, Toshkent tumanidagi 12-umumta'lim maktabining 3-«A» sinf o'quvchisi



«Ikki o'quvchi»



«Raqqosa»

Axliyor YO'LDOSHEV, Farg'ona viloyati, Beshariq tumanidagi 40-umumta'lim maktabining 6-«A» sinf o'quvchisi



«Natyurmort»

Kamola BAXTIYOROVA, poytaxtimizning Yunusobod tumanidagi 105-umumta'lim maktabining 7-«A» sinf o'quvchisi

BO'SH O'TIRMAI, BOSH QOTIR! «ONA»LI NOMLAR -TOPSHIRIQ

**	6/2	3/1	12/2	**	**	1	
**	14/3	**	**	2			
**	16/5	**	**	3			
**	17/1	**	**	4			
**	**	**	**	5			
**	18/2	**	**	6			
**	15/4	**	**	7			
**	10/2	**	**	8			
**	8/1	**	**	9			
**	19/3	**	**	10			
**	20/6	**	**	11			
**	**	**	**	12			
**	**	**	**	13			
**	**	**	**	14			
**	**	**	**	15			
**	16						
**	17						
**	18						
19							
20							



Quyida ta'riflari bayon etilgan nomlar tabarruk «Ona» so'zi bilan tugallanadi. Ularning to'liq atalishini topib, shakliga yozish bilan topqirligingizni sinab ko'ring.

1. G'oz ta'ri tupi g'unchasi. 2. Tabobat ilmining bobokaloni, qomusiy alloma Abu Ali ibn Sino tavallud topgan Buxoro viloyatidagi tarixiy maskan. 3. Mevali daraxtning ilk hosili. 4. Musiqi asari, kuy, ohang. 5. Boshqa tengi yo'q, bitta-yu bitta hisoblanuvchi. 6. Markaziy Osiyodagi gullab-yashnagan vodi. 7. Yirik va musaffo inju. 8. Ustoz yozuvchi Said Ahmadning «Jimjitlik» romani qahramoni. 9. Biror tomonga yo'l olish, jo'nash. 10. Shu'la atrofida aylanuvchi tun kapalagi. 11. Estrada xonandasi, aktrisa ... Madrahimova. 12. Shod-xurramlik, tantana so'zlari ma'nodoshi. 13. O'quv mashg'ulotlari o'tkaziladigan maskan. 14. Mahalliy tipdagi imoratning ikkinchi qavati. 15. Respublikamiz janubidagi shifobaxsh ma'dan suvli sihatgoh. 16. Oliy liga futbol jamoasi. 17. Kitobsevarlarning qadrdon maskani. 18. Kitoblar chop qilinadigan korxonasi. 19. O'zbekiston xalq shoiri Anvar Obidjon qalamiga mansub she'riy taqvim. 20. Surxondaryo viloyatidagi Bobotog' tizmasining janubi-g'arbida joylashgan qir.


Raqamlar juftligida: Topshiriqni hal etgandan so'ng shaklning chap tomonidagi raqamlar juftini (birinchi so'z, ikkinchi harf tartibini anglatadi) javoblardagi harflar bilan almashtirish orqali «Ona» bilan boshlanuvchi «O'zbekiston Respublikasining Konstitusiyasi»ning «Oila» bobida «... va bolalik davlat tomonidan muhofaza qilinadi» qayd etilgan so'z va «O'zbekiston Qahramoni», atoqli shoir Abdulla Oripov ijodiga mansub she'rini bilib olasiz.

Tuzuvchi: Foziljon ORIPOV

8-MART BAYRAMINGIZ BILAN

1. Tuman, daryo, taom. 2. Chak ... (Aktyor). 3. Tuman (Farg'ona viloyati). 4. Viloyat. 5. Konvertga yopishtiriladi. 6. Yason va ... lar (film). 7. Avto marka (Chexiya). 8. Ammoniy gidroksid. 9. Bahor. 10. Ilon (forscha). 11. Qilich turi.

Diyorbek PO'LATOV, Navoiy shahar, 16-umumta'lim maktabining 3-«D» sinf o'quvchisi



5-mart 2018

Tong yulduzi
Muassis:
O'zbekiston Respublikasi
Xalq ta'limi vazirligi

Bosh muharrir
Feruzna ADILOVA
Gazeta O'zbekiston
Matbuot va axborot
agentligida
0208-raqam bilan 2007-yil
2-fevralda ro'yxatdan
o'tgan.

TAHRIR HAY'ATI:
Qahramon QURONBOYEV,
Dilshod KENJAYEV,
Alisher SA'DULLAYEV,
Laziz TANGRIYEV,
Murtazo SULTONOV,
Feruzna JALILOVA,
Ashurali JO'RAYEV
(Bosh muharrir o'rinbosari),
Feruz MATYOQUBOV
(mas'ul kotib)

Navbatchi muharrir
Nodira NAZAROVA
Rassom
Feruzbek KAMOL o'g'li
Shaxobiddin
MAXMADIYEV
Fotomuxbir
Zubayda
HAMIDULLAYEVA

«O'zbekiston» NMIU
bosmaxonasida chop etildi.
Manzillimiz va bosmaxona
manzili:
Toshkent shahri,
Navoiy ko'chasi, 30-uy.
Indeks: 100011.
Obuna indeksi: 198.
e-mail: info@tongyulduzi.uz
www.tongyulduzi.uz
Adadi - 74416
Buyurtma - V 1198

Tahririyatga kelgan barcha
qo'lyozmalar tahrir qilinadi,
mualliflarga qaytarilmaydi.
Shakli A-3, 2 bosma taboq.
Bahosi kelishilgan narxda.
Gazeta haftaning dushanba
kuni chop etiladi.
Topshirish vaqti - 18:00
Topshirildi - 18:00
Tel./faks:
(99871) 244-63-08